

FARZAND TARBIYASI HAR NEDAN AFZAL!!!

*Ilmiy rahbar: Mohira Muydinova Muqimjanovna*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Sotsiologiya kafedrasи o'qituvchi*

**Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi**

*Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Sotsiologiya yo'naliishi talabasi*

**karimjonovagulshanoy07@gmail.com**

**Annotatsiya:** Farzand tarbiyasi, uning porloq kelajagi ota-onaning yutug' idir. Haqiqatdan, Farzandning baxti-onaning baxtidir deya bejiz aytilmagan. Ushbu maqolada farzand tarbiyasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** dolzarb, mas'uliyat, farzand burchi, hadisi sharif, xulq, hushyorlik.

*Daraxtdan meva olaman desang,  
uni nihollik davridan parvarish qil.*

**(O'zbek xalq maqoli)**

Farzand!!! Allohning insonga bergen eng ulug' ne'mati va omonatidir. Dunyoda bu ulug' ne'matdan benasiblar qancha. Yaratgan egam ushbu beba ho ne'matni bergandan so'ng, biz ota-onalar bola tarbiyasiga beparvo bo'lmasligimiz lozim. Allohning omonati bo'l mish farzand tarbiyasi uchun biz bu yorug' dunyoda ham, oxiratda ham javobgar shaxs hisoblanamiz. O'tmishda ota-bobolarimiz aytib o'tishganidek, farzand uchun ota-onadan qoladigan eng katta meros bu-go'zal xulq va go'zal tarbiyadir. Farzandni dunyoga keltirgandan so'ng ota-onaning yelkasiga qator zimmalar yuklatiladi: chiroyli ism qo'yish, parvarishlash, voyaga yetkazish, ilmli, odob-axloqli qilib tarbiyalash, oila qurdirish va h. k.

Mayli o'g'l bo'lsin, mayli qiz bo'lsin,  
Hamma odobi, shirin so'z bo'lsin.  
Qani duo qilaylik, aziz do'stlarim!  
Har bir farzand bizdan qolar iz bo'lsin.

Farzand tarbiyasi ancha mas'uliyatli vazifadir. Bolaga tarbiya berishni ona qornidaligidayoq boshlasak, adashmagan bo'lamic. Xalqimizda "Bola boshidan" deya bejizga aytilmagan. Farzandlarimizning tarbiyali bo'lishini istasak, bolalik chog'idanoq harakatni boshlashimiz darkor. Avvalo, bola tarbiyasida oilaviy muhitning o'rni benihoya. Undan tashqari, bolamizning atrofidagi bolalarga ham e'tiborli bo'lsak, nur ustiga a'lo nurdir. Chunki bola atrofida ko'rgan-bilganlariga taqlid qiladi, ergashadi. Hadisi shariflarda ham farzand tarbiyasiga oid alohida o'rinlar mavjud. Jumladan, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) barcha ummatlariga oila

qurishni buyurganlar. Sababiki, oxiratda ummatlari ko'p bo'lishini istaganlar. Farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lgan birinchi shaxs -ota -ona. Bola besh yoshigacha butun hayoti davomidagi 80%tarbiyani o'ziga singdiradi. Ayrim o'rnlarda biz ota-onalar bola tarbiyasidagi salbiyliklarning guvohi bo'lganimizda o'qituvchi va maktab muhitini aybdor qilamiz, Bu esa , albatta, o'rinsiz gumondir."Qazisan, qartasan asl zotingga tortasan", yoki bo'lmasa "Qush uyasida ko'rganin qilar"singari xalq maqollari bejiz emas.

Hadisi shariflarda aytishicha, yaxshi duo bilan yomon taqdir yaxshilanar, yomon duo bilan esa,aksincha, yaxshi taqdir ham yomonlashar ekan. Shunday ekan, azizlar, biz farzandimiz kelajagiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'l mish dostonlarda ham, yozma adabiyot namunalari bo'l mish asarlarda ham farzand tarbiyasi, oilaviy muhitning farzand kelajagiga ta'siri,ota-bola munosabati kabi mavzular batafsil yoritishga harakat qilingan. Namuna o'rnida aytib o'tishimiz lozimki, "Alpomish" dostonida Hakimbekning otasi Boysari o'g'lining voyaga yetguniga qadar qilgan harakatlarini bir eslaylik:maktabga qo'yib, xat-savodli qilishi, ot choptirish,yoy tortish, nayza sanchish... kabilar bunga misol bo'la oladi . Undan tashqari, Boysari o'g'li Hakimbekni musulmon insonga xos xislatlar,saxiylik va baxillik oqibatlari ,farzandning ota-ona oldidagi burch va vazifalari bilan ham tanishtiradi.Boysarining bu harakatlari, albatta, bejiz ketmadi. Natijada Alpomishday o'g'ilga ega bo'ldi.

Haqiqatan, farzand tarbiyasi hushyorlikni talab qiladi. Shunday ekan, azizlar , biz farzandlarimiz tarbiyasi va kelajagiga befarq bo'lmaylik. Shundagina biz uchun ko'zlagan cho'qqilarimizga chiqishimiz oson kechadi!!!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Alixon Usmonov-Oilada farzand tarbiyasi.
- 2.Hadis manbalari.